

YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM SIFATI VA MUSIQA

Otabek Oripov Olimjon o'g'li

O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy
estrada san'ati instituti Puflamava zarbli cholg'ular
mutaxassisligi Magistr 1- kurs talabasi

Rahimov Olimjon Orifjonovich

Ilmiy rahbar

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqaning inson salomatligi, tarbiyasi va ruhiyatidagi o'rni, shuningdek Prezidentimizning musiqiy ta'larning rivojlanish to'g'risidagi qarorlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, musiqa, miliy, san'at, sifat, madaniyat, pedagogika, tarbiya.

Аннотация: В данной статье говорится о роли музыки в здоровье, образовании и психике человека, а также о решениях президента по развитию музыкального образования.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, музыка, национальность, искусство, качество, культура, педагогика, воспитание.

Key words: New Uzbekistan, music, national, art, quality, culture, pedagogy, upbringing.

O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga, barkamol avlod bo'lib yetishimizga bog'liq. Biz O'zbekiston fuqarosi sifatida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan katta o'zgarishlarda o'zimizning ham hissamiz borligini doimo his qilib turamiz. Musiqa bu tarbiyaning eng faol turi hisoblanadi. Bola tug'ilgandan so'ng ilk bor ona allasini tinglab orom oladi. Musiqa ta'limi va tarbiyasi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim o'rinn tutadi. Musiqiy ta'lim nafaqat bola tarbiyasida, balki butun jamiyat xalq tarixi oynasida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday tarixga ega bo'lgan xalq, albatta madaniyati kuchli xalq hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda musiqa san'atini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar hech qachon to'xtab qolmaydi. O'zbek musiqa yanada rivojlanib dunyo sahnalarini ko'radi. Bugungi kunda yurtimizda ta'lim mazmunini yangilash, sifat ko'rsatkichlarini oshirish barobarida o'qituvchi – murabbiylarning malakasini oshirish, ularning ilm – fan taraqqiyoti bilan hamqadam borishini, ayniqsa barcha sohalarga keng kirib kelgan va qo'llanilayotgan axborot texnologiyalari, kompyuter bilan erkin muloqot qila oladigan va o'z faoliyatida, dars samaradorligini ta'minlashga tatbiq eta oladigan darajada tayyorlash (qayta tayyorlash) bugungi kunning muhim vazifalaridandir. Ta'limga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha amaliy tajribalarni o'rganish, kuzatish va tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'limning deyarli barcha bo'g'inlarida mashg'ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil etish keng tus olmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizning barcha ta'lim tizimida, ayniqsa oliy pedagogik ta'lim tizimida pedagog – kadrlar tayyorlashning sifat va samaradorligini yuqori ko'tarishga katta ahamiyat berilmoqda va bu borada turli pedagogik izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlarning aksariyati o'qitish maqsadi va uning yuqori natijalariga erishishida ta'limga ilg'or pedagogik texnologiyalarni kiritish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ta'limni texnologiyalashtirish eng muhim vazifalardan bo'lib turibdi. O'qituvchining yuksak pedagogik mahorati, bilim darajasi shubhasiz ta'lim – tarbiyaning muhim omillaridan biridir. Yurtimizda uzlusiz ta'lim tizimi asosida shaxsni rivojlantirishda juda katta e'tibor berilib kelmoqda. Bu o'rinda musiqa darslarida e'tibor tubdan takomillashtirilib, uni yanada rivojlantirish masalasiga e'tibor o'zgacha tus oldi. Kelajak avlodni barkamol inson etib tarbiyalashga alohida urg'u berishi juda ham ahamiyatli va quvonarli holdir.

Musiqa dunyosi insoniyatning hayoti, yashash tarsi, faoliyati, mehnati, qadriyati, an'anasi inkor etuvchi vosita sifatida ahamiyatlidir. Shu bois musiqa o'zining badiiy va estetik imkoniyatlariga egaligi bilan harakterlanadi. Musiqa sohasida ta'lim olayotgan har bir sozanda,

xonanda va ijodkorlar o‘z musiqa an’analarini bilib olishlari va kelgusida avlodlariga xos an’anani munosib davom etirishlariga “ o‘zbek musiqasi tarixi” fanida olgan saboqlari albatta dasturi amal bo‘lib hizmat qiladi. Xalq musiqasi bu hayot manbai, ijod manbai, ruh ozig‘i millat ko‘zgusidir. Musiqa madaniyatining umumiylara taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan cholg‘ularni takomillashtirish, xalq ijrochilik san’ati rivoji uchun katta imkoniyatlardan yaratdi. Musiqa inson madaniyatida jamoaviy hayotda o‘ziga xos o‘ringa ega. U dam olish va ko‘ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashqlari va mehnat jarayonida muayyan vazifalar bajaradi. Shuning uchun musiqa asarlari o‘z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub, tur va janr guruhlariga bo‘linadi. Musiqa madaniyatining umumiylara taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan cholg‘ularni takomillashtirish, xalq ijrochilik san’ati rivoji uchun katta imkoniyatlardan yaratdi. Musiqa madaniyatini o‘quvchilar ongida shakllantirish asnosida fan o‘z oldiga bir necha vazifalarni qo‘yadi:

- O‘quvchilarga berilayotgan musiqiy ta’lim-tarbiyani hayotga bog‘lab olib borish;
- O‘quvchilarda musiqa san’atiga mehr, qiziqishni o‘stirish;
- O‘quvchilarda musiqiy-badiiy didni va musiqa faoliyatlariga ehtiyojini rivojlantirish;
- Musiqa haqida bilim, malakalar doirasini tarkib toptirish;
- Iqtidorli o‘quvchilarning musiqiy rivojlanishi uchun sharoit yaratib berish;
- Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy- ijodkorlik his-tuyg‘ularini rivojlantirish;
- Musiqiy asarlarning badiiy-g‘oyaviy

mazmuni vositasida o‘quvchilarda axloqiy- estetik qarashlarni tarbiyalash.

Xulosa qilib aytish mumkunki, musiqa hohlasmizmi hohlamaymizmi hayotimizni ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda. Musiqa bilan hayotimiz yorqin va jozibalidir. Musiqasiz hayotimizni tasavvur eta olmaymiz, chunki musiqasiz hayot go‘yo g’amgin va mayusdek bo‘lib qoladi. Musiqa bu o‘zgacha tuyg‘uki uni faqat his eta olishiz mumkun. Musiqa insonni dunyoqarashini, savyasini oshirishda ko‘maklashadi. Hozirgi vaqtga kelib musiqaga bo‘lgan ehtiyoj ortgani bois, turli tadbirlar, teatr va zallarda musiqa ijro etilmoqda. Bu xalqning kayfiyatiga ijobiy tasir etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev “ Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari” Toshkent 2020
2. Sharipova G. Musiqa o‘qitish metodikasi. TDPU, 2004 – yil
3. Kimsanov, O. I. (2022). O‘quvchilarni musiqa darslarida ma’naviy va axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari. Современные исследования в психологии и педагогике, 1(1), 240-245.
4. Ziyo. net